

Namangan viloyati  
Statistika boshqarmasi

# NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- yil yanvar-dekabr



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-dekabr)




5 878,7  
ming so'm

Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi



66,4%

Xizmatlar  
sohasida  
kichik  
tadbirkorlik  
ulushi



69,1%

Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi


### Xizmatlar hajmi

17 822,9  
mlrd. so'm




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar  
(1-yanvar holatiga ko'ra)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar  
(yanvar-dekabr)



Soni, birlikda




Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1- yanvar holatiga ko'ra)


Soni, birlikda




Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-dekabr)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-dekabr)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2023- yil yanvar-dekabr)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


**Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasining asosiy  
ko'rsatkichlari**

(2023- yil yanvar-dekabr)

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>17 822,9</b>	100	<b>111,1</b>
Namangan sh.	6 863,6	38,5	113,3
<b><i>tumanlar:</i></b>			
Mingbuloq	718,5	4,0	108,2
Kosonsoy	978,8	5,5	109,1
Namangan t.	949,8	5,3	108,8
Norin	791,7	4,5	110,6
Pop	1 148,0	6,4	110,8
To'raqo'rg'on	1 140,7	6,4	111,9
Uychi	1 156,0	6,5	109,1
Uchqo'rg'on	883,5	5,0	109,9
Chortoq	984,9	5,5	111,8
Chust	1 296,3	7,3	107,8
Yangiqo'rg'on	911,1	5,1	110,3


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr) **5 878,7**




## Tuman(shahar)lar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-dekabr)

■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati






## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **66,4** foizni, shu jumladan, **19,0** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik





**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari**  
(2023- yil yanvar-dekabr)


Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>17 822,9</b>	<b>100,0</b>	<b>111,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	907,6	5,1	120,4
Moliyaviy xizmatlar	2 965,3	16,6	112,3
Transport xizmatlari	3 369,3	18,9	114,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 978,9	16,7	109,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	522,7	2,9	109,3
Savdo xizmatlari	5 520,4	31,0	109,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	473,5	2,7	105,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	903,4	5,1	127,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	402,2	2,3	105,2
Ijara xizmatlari	291,2	1,6	93,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	507,4	2,8	105,5
Shaxsiy xizmatlar	1 152,0	6,5	104,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	194,6	1,1	103,2
Boshqa xizmatlar	613,3	3,4	109,2

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-dekabr** oylarida ularning ulushi **54,7** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr)




## Tuman(shahar)lar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)

### Xizmatlar hajmi




### Oʻsish surʻati




## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)



## Tuman(shahar)lar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-dekabr)




— Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-dekabr)




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **66,2** foizni yoki **1 962,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-dekabr** oylariga nisbatan Namangan shahrida o'sish sur'ati **104,5** % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,4** foiz.

Namangan shahrida transport xizmatlari hajmi **964,8** mlrd. soʻmni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʼati **136,7** foizni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr)




## Tuman(shahar)lar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-dekabr)


### Xizmatlar hajmi

### Oʻsish surʼati



## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-dekabr)

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 978,9** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,3** foizni tashkil etdi.



### Tuman(shahar)lar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)



Transport xizmatlari umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **24,4** foizni yoki **728,8** mlrd. so'm-ni tashkil etdi. **2022-yil yanvar-dekabr**ga nisbatan **126,1** foiz yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Namangan sh.	728,8	+26,3%
Kosonsoy	288,3	+1,3%
Chortoq	241,0	+19,6%
Namangan t.	236,0	+8,0%
To'raqo'rg'on	214,7	+4,5%
Norin	196,9	+7,2%
Chust	195,1	+2,1%
Yangiqo'rg'on	188,9	+8,3%
Uchqo'rg'on	182,2	-4,4%
Uychi	179,2	+4,1%
Pop	168,6	+8,4%
Mingbuloq	158,5	+0,1%

 Hajmi, mlrd. so'mda

 O'sishi


**2023- yilning yanvar-dekabr** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **80,8 foiz**.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



## Tuman(shahar)lar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2023- yil yanvar-dekabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

**2023- yilning yanvar-dekabr** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **61,9** foizni tashkil etdi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr)




## Tuman(shahar)lar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-dekabr)



### Xizmatlar hajmi


### O'sish sur'ati






## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **90,7** foizni tashkil etdi.

## Tuman(shahar)lar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda    ● O'sishi


## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **56,5** foizni tashkil etdi.




## Tuman(shahar)lar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)

**2023- yilning yanvar-dekabr** oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismini egallaydi. Ularning ulushi **43,1** foizni tashkil etdi.




## Tuman(shahar)lar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)




## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-dekabr)



## Tuman(shahar)lar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)




**2019- yilning yanvar-dekabr**ga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **141,1** mlrd. so'mga oshib, **291,2** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-dekabr** oylarida avtomobillar va yengil avto-transport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **53,6** foizni tashkil etdi.




## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **27,6 %** ni tashkil etadi.


## Tuman(shahar)lar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)




**2022- yilning yanvar-dekabriga** nisbatan o'rganilayotgan davrda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari hajmi **97,2** mlrd. so'mga oshib, **507,4** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-dekabr** oylarida Namangan shahrining ulushi **21,8 %** ni tashkil etdi.

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



## Tuman(shahar)lar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



**2019- yilning yanvar-dekabr** oylariga nisbatan **2023-yilning** ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **15,7** mlrd. so'mga oshib, **194,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **86,7 %** ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 69-211-72-00

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta'lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.